XALQ DEPUTATLARI NURAFSHON SHAHRI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 20-mart VII-6-34-10-213-K/25 Nurafshon shahri

Nurafshon shahri maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar maʼmuriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish boʻyicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “yoʻl xaritasi” hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “yoʻl xaritasi” maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kadastr agentligining 2024-yil 4-apreldagi Toshkent viloyati hokimligiga yuborilgan 03/08-3236-sonli xat orqali yuborilgan maʼmuriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Nurafshon shahri maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha shahar komissiyasining 2025-yil 7-fevraldagi 1-sonli yigʻilish bayoni maʼqullansin.

4. Nurafshon shahri maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha shahar komissiyasi tomonidan oʻrganib chiqilgan hujjatlarga asosan Nurafshon shahri bilan chegaradosh boʻlgan Oʻrta Chirchiq tumani oʻrtasidagi chegara chizigʻini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Shahar maʼmuriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizigʻi hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer maydonlaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yoʻl va boshqa tabiiy va sunʼiy obyektlar) saqlab qolinishi boʻyicha Kadastr agentligining shahar boʻlimi boshligʻi I.Ibrolimovga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining doimiy komissiyalari hamda shahar hokimining barcha oʻrinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning tasdigʻi xalq deputatlari viloyat Kengashidan soʻralsin.

Kengash raisi KLICHXANOV ILXOM MAXMUDJONOVICH

Xalq deputatlari Nurafshon shahri
Kengashining
2025-yil 20-martdagi
VII-6-34-10-213-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati Nurafshon shahri maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining
T A V S I F I

Nurafshon shahri hamda Oʻrta Chirchiq tumanlarining chegara chiziqlari tutashgan joy, R-2 avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan nuqta boshlangʻich 1-nuqta deb qabul qilindi *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 41°04'24,439", sharqiy uzoqlik koordinatalari 69°20'03,419").*

A dan A gacha Oʻrta Chirchiq tumani yerlari bilan 1 - 1 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 33 metr masofada R-2 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, keyin zovurga tutashadi va sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 1066 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°04'23,857", sharqiy uzoqlik 69°20'50,167").*

2-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan umumiy janubiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 696 metr, keyin yoʻlning janub tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 96 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°03'59,942", sharqiy uzoqlik 69°20'56,320").*

3-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 8 metr masofani oʻtadi, keyin qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib yoʻlning sharq tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 154 metr masofada yoʻlni kesib oʻtadi, keyin yoʻlning janub tomoni bilan umumiy sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 269 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°03'57,001", sharqiy uzoqlik 69°21'11,349").*

4-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan tomorqa chegarasiga tutashadi va chegara boʻylab umumiy janubiy yoʻnalishda 601 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°03'38,737", sharqiy uzoqlik 69°21'15,589").*

5-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 255 metr masofani oʻtadi, keyin zovurni kesib oʻtib dala qishloq ichki yoʻliga tutashadi, soʻng yoʻlning sharq tomoni bilan umumiy janubiy yoʻnalishda 490 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°03'20,361", sharqiy uzoqlik 69°21'26,558").*

6-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni bilan umumiy sharqiy yoʻnalishda 212 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°03'21,504", sharqiy uzoqlik 69°21'35,410").*

7-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining sharq tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 175 metr, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan shimoliy-sharqiy

yo‘nalishda 47 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yoʻli boʻyida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°03'18,811", sharqiy uzoqlik 69°21'42,806").*

8-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda 758 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy yoʻnalishda 15 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻl boʻyida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°03'00,424", sharqiy uzoqlik 69°22'03,897").*

9-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 285 metr masofada qishloq ichki yoʻliga oʻtadi, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan umumiy sharqiy yoʻnalishda 259 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°02'50,799", sharqiy uzoqlik 69°22'14,522").*

10-nuqtadan chegara chizigʻi janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 43 metr masofani oʻtib, keyin zovurni kesib oʻtib tomorqa devoriga oʻtadi va devor boʻylab umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda 243 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°02'44,070", sharqiy uzoqlik 69°22'20,078").*

11-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining janub tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 60 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻliga tutashadi keyin yoʻlning janub tomoni janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 99 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yoʻli boʻyida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°02'40,125", sharqiy uzoqlik 69°22'20,500").*

12-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 295 metr masofada yo‘lni kesib o‘tadi, dala tuproq yo‘li boʻyida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°02'31,144", sharqiy uzoqlik 69°22'23,880").*

13-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 410 metr masofani o‘tib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°02'29,634", sharqiy uzoqlik 69°22'40,987").*

14-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlning gʻarb tomoni bilan umumiy janubiy yoʻnalishda 193 metr masofani oʻtib, zovurga oʻtadi, keyin yoʻnalishni oʻzgartimagan holda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 392 metr masofa oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°02'11,529", sharqiy uzoqlik 69°22'37,938").*

15-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 74 metr masofani oʻtib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 6 metr masofada yoʻlni kesib oʻtib, yoʻlning sharq tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 201 metr, soʻng yoʻlning janub tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 29 metr, soʻngra yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 46 metr masofada yoʻlni kesib oʻtib, keyin yoʻlning janub tomoni bilan umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 45 metr, soʻng toʻgʻri chiziq orqali janubiy yoʻnalishda 12 metr masofada yoʻlni kesib oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°02'04,060", sharqiy uzoqlik 69°22'33,730").*

16-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 88 metr, keyin yoʻlning gʻarb tomoni bilan umumiy janubiy

yoʻnalishda 168 metr masofani oʻtib, soʻng toʻgʻri chiziq orqali janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 48 metr masofada beton ariqni kesib oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°01'56,758", sharqiy uzoqlik 69°22'36,504").*

17-nuqtadan chegara chizigʻi beton ariqdan tomorqa chegarasiga oʻtadi va tomorqa chegarasi boʻylab umumiy janubiy yoʻnalishda 118 metr masofada zovurni kesib oʻtib, keyin zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 213 metr masofani oʻtib, soʻng tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi boʻylab janubiy-sharqiy yoʻnalishda 135 metr masofada qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°01'43,407", sharqiy uzoqlik 69°22'36,083").*

18-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining sharq tomoni bilan umumy janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1124 metr masofada R-2 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°01'08,457 ", sharqiy uzoqlik 69°22'14,777").*

19-nuqtadan chegara chizigʻi R-2 avtomobil yoʻlidan qishloq ichki yoʻliga oʻtadi va yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 321 metr masofani oʻtib, ekin yer chegarasiga tutashadi, keyin ekin yer chegarasi boʻylab sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 60 metr, soʻngra janubiy yoʻnalishda 253 metr masofada ariqqa tutashadi, soʻngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 75 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°00'50,739", sharqiy uzoqlik 69°22'15,360").*

20-nuqtadan chegara chizigʻi ariq boʻyidan ekin yer chegarasiga oʻtadi va ekin yer chegarasi boʻylab umumiy janubiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 706 metr masofada qishloq ichki yoʻliga oʻtadi va yoʻlning shimol tomoni bilan umumiy sharqiy yoʻnalishda 111 metr masofani oʻtib, keyin toʻgʻri chiziq orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 62 metr masofada zovurni, qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°00'27,023", sharqiy uzoqlik 69°22'20,580").*

21-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining janub tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 58 metr, keyin umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 544 metr masofani oʻtib, temir yoʻl boʻyida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°00'16,443", sharqiy uzoqlik 69°22'39,070").*

22-nuqtadan chegara chizigʻi temir yoʻlining gʻarb tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 568 metr masofani oʻtib qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning shimol tomoni bilan umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 337 metr masofada zovurga oʻtadi, keyin toʻgʻri chiziq orqali janubiy yoʻnalishda 21 metr masofada temir yoʻlni kesib oʻtib, zovurga oʻtadi, soʻngra zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 154 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°59'50,847", sharqiy uzoqlik 69°22'46,313").*

23-nuqtadan chegara chizigʻi zovurdan ariqqa oʻtib va ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 678 metr masofada qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 47 metr masofani

oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°59'30,919", sharqiy uzoqlik 69°22'37,763").*

24-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib ariqqa tutashadi va janubiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 66 metr, keyin sharqiy yoʻnalishda 116 metr, soʻng umumiy janubiy yoʻnalishda 364 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 191 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°59'19,091", sharqiy uzoqlik 69°22'52,353").*

25-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 314 metr, keyin umumiy janubiy yoʻnalishda 220 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°59'08,306", sharqiy uzoqlik 69°22'39,558").*

26-nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 451 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°59'08,060", sharqiy uzoqlik 69°22'21,231").*

27-nuqtadan chegara chizigʻi ariqni kesib oʻtib ariqqa oʻtadi va umumiy janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 409 metr masofada qishloq ichki yoʻliga oʻtadi va yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 138 metr masofada yoʻlni kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°58'57,425", sharqiy uzoqlik 69°22'08,246").*

28-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining gʻarb tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 51 metr masofani oʻtadi, keyin yoʻlning shimol tmoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 56 metr masofada ariqqa tutashadi va umumiy shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 657 metr, soʻng gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 160 metr masofada beton latokni kesib oʻtib, latok boʻyida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°59'17,394", sharqiy uzoqlik 69°21'57,548").*

29-nuqtadan chegara chizigʻi beton latokning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 266 metr, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 478 metr, soʻng shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 797 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 71 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°59'30,091", sharqiy uzoqlik 69°21'03,956").*

30-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining janub tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 816 metr, keyin yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1130 metr, soʻng yoʻlning janub tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2337 metr masofada R-20 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°00'41,641", sharqiy uzoqlik 69°18'37,535").*

31-nuqtadan chegara chizigʻi R-20 avtomobil yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 2803 metr masofani oʻtib, R-22 va R-20 avtomobil yoʻllari kesishgan joyda joylashgan 32-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°02'08,676", sharqiy uzoqlik 69°19'12,003").*

32-nuqtadan chegara chizigʻi R-20 avtomobil yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 3175 metr masofani oʻtib, R-20 avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°03'46,942", sharqiy uzoqlik 69°19'52,459").*

33-nuqtadan chegara chizigʻi R-20 avtomobil yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1121 metr masofada R-2 avtomobil yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 106 metr masofani oʻtib, R-2 avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan boshlangʻich 1-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°04'24,439", sharqiy uzoqlik 69°20'03,419").*

Xalq deputatlari Nurafshon shahri
Kengashining
2025-yil 20-martdagi
VII-6-34-10-213-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Toshkent viloyati Nurafshon shahari ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining kartografik

CHIZMASI

